

OILA PSIXOLOGIYASIDA MUHABBAT TUSHUNCHASI

Musurmonqulov Farrux Shuxrat o`g`li, talaba
Oltiboyeva Xurshida Iskandar qizi, talaba
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya: Oila psixologiyasi fan sifatida oilaning ijtimoiy institut maqomidagi faoliyatining ob`ektiv qonuniyatlarini, oila-nikoh hamda qarindosh-urug`chilik munosabatlarining mexanizmlari va turmush tarziga oid konkret vaziyatlarda oila a`zolari ijtimoiy xulqining namoyon bo`lishini o`rganadi. Maskur maqolada oila psixologiyasida muhabbat tushunchasi va inson o`zida kechirtayotgan hissiyotlar hamda munosabatlar haqida bayon etiladi.

Kalit so`zlar: Psixologiya, fizalogiya, sezgi, idrok, psixoterapevt, oila, muhabbat, sevgi, his, ruhiy, nigoh.

Psixologiya — inson faoliyati va hayvonlar xatti-harakati jarayonida voqelikning psixik aks etishi, ruhiy jarayonlar, holatlar, hodisalar, hislatlar to`g`risidagi fan. Psixologiyaning tadqiqot predmetiga sezgilar va idrok obrazlari, tafakkur va hissiyot, faoliyat va muomala kabi psixologik jarayonlar, kategoriyalar kiradi. Psixologiyaning asosiy vazifalari — psixika qonuniyatlarini, inson ruhiy holatlari shakllanishini filogenetik va ontogenetik taraqqiyot birligida ochishdan iboratdir. Mazkur vazifalar yechimini topishda psixologiya bir tomondan, biologiya fani sohalari bilan, jumladan, fizalogiya bilan, boshqa tomondan esa, sotsologiya, pedagogika, madaniyat tarixi, mantiq hamda ijtimoiy fanlar bilan jips aloqaga kirishadi.

Psixologiya eng avvalo, psixikaning insonga xos shakli bo`lmish ong va o`zini o`zi anglashni tadqiq etadi. Psixalogiya ajralmas bo`lagi sifatida oila psixalogiyasi hisoblanadi. Oila psixologiyasi ijtimoiy psixologiyaning bir tarmog`i sifatida XX asrning oxirlariga kelib shakllangan. XXI asrga kelib esa uning inson hayotidagi ahamiyati va jamiyat ma`naviyatini barqarorlashtirishdagi roli yanada sezila boshladi.

Zero, dunyoning qator mamlakatlari, jumladan, rivojlangan davlatlarda ham oila va nikoh munosabatlaridagi bo`hron, psixoterapevtlar yordamiga muhtojlik kabi holatlar ushbu maskanning muammolarini o`rganish va shu yo`nalishda maqsadli tadqiqotlar, ilmiy-amaliy tadbirlarni amalga oshirish lozimligini uqtirmoqda. Oilaviy munosabatlar psixologiyasi va ushbu masalaga qarashlar tarixidan shu narsa ayon bo`ldiki, inson, uning kim bilan va qanday yashashi muammosiga qiziqish qanchalik uzoq o`tmishga borib taqalsa, oila psixologiyasining fan tarmog`i sifatida shakllanishi shunchalik navqiron va yosh bo`lib, uning shakllanishi yangi davrga to`g`ri keladi.

Oila psixologiyasi fan sifatida oilaning ijtimoiy institut maqomidagi faoliyatining ob`ektiv qonuniyatlarini, oila-nikoh hamda qarindosh-urug`chilik munosabatlarining mexanizmlari va turmush tarziga oid konkret vaziyatlarda oila a`zolari ijtimoiy xulqining namoyon bo`lishini o`rganadi. Ijtimoiy psixologiyaning amaliy tarmog`i sifatida u nikohga oid ustanovkalarni, oila a`zolari o`rtasidagi

munosabatlarning – mehribonlik, g'amxo'rlik, hamdardlik, hamjihatlik, tobelik, bo'ysunish, yetakchilik kabi o'ziga xos qirralarini, oilaviy rollar taqsiomtiva va o'zaro ta'sirning jinsga oid qonuniyatlarini, ota-ona va farzandlar, yaqin qarindosh urug'lar o'rtasidagi hissiy-emotsional bog'liqlikni, oilaviy ro'zg'or yuritish va turmush tarzini tashkil etishga bog'liq bo'lgan psixologik jarayonlarning kechishini tadqiq etadi, o'rganadi.

Oilaviy hayot psixologiyasi, shunday qilib, insonlarning qanday qilib o'zaro qovushishlari, birgalikda yaxshi niyat bilan oila – ro'zg'or yuritishlari, bahamjihatlikda hayot kechirishlarini o'rganuvchi fan O 43 tarmog'idir. Har bir oila konkret davr, vaqt, zamon va makonda mavjud bo'lganligi sababli, u avlodlararo bog'liqlik, ma'naviy meros, milliy an'analar, urf-odatlar va rasm-rusmlarni saqlovchi noyob inosniy uyushmadir. SHu institut bo'lgani sababli, har bir millat, elat va xalqlarning noyob udumlari asrlar osha saqlanib kelmoqda. Umuman, nikoh deb atalmish qadriyatning mavjudligi va unga avlodlarning e'tiqod qilishi ham oilaning muhim vazifasidir. Shu jumladan oila psixologiyasi turli hissiyot, sevgi, muhabbat kabiholatlar ham yuzaga keladi. Keling biz hozir muhabbat tushunchasiga yaqindan tanishib o'tamiz.

Muhabbat ontogenezigaga nazar tashlanganda sevgi hissining ilk kurtaklarini bog'cha yoshidagi bolalarda ham ko'rish va buni har bir tarbiyachidan so'rab, ishonch hosil qilish mumkin. Lekin tabiiyki, bu hali to'laqonli muhabbat bo'la olmaydi. Bolalikdagi sevgi hislarida fiziologik komponent, ya'ni jinsiy intilish deyarli bo'lmaydi. Ulardagi hissiyotning aksariyat qismi ruhiy komponentdan iborat. Maktab yoshidagi o'g'kil va qiz bolalar o'rtasidagi muhabbat hislari esa birmuncha farq qiladi. O'spirinlik yoshidagi qiz bolalarda ruhiy komponent jinsiy komponentdan ustunlik qilsa, o'g'il bolalarda hissiyot divergensiyasi — bolinishi kuzatiladi.

Ya'ni ular muhabbat hislarini bitta qizga nisbatan boshidan kechirsalar, jinsiy intilishni katta yoshli ayolga nisbatan his etadilar, ulardagi hissiyot ikki obyektga bo'linadi. Bu faqat o'g'il bolalarga xos bo'lib, qizlarda bunday hol kuzatilmaydi. O'smirlik yoshida o'g'il bolalarda giperseksuallik natijasida ularning hissiyotida jinsiy intilish ustunlik qiladi yoki uning ahamiyati keskin ortadi. Qiz bolalarda esa ruhiy komponentning ustunligi saqlanib turadi. 17—25 yoshlardagi yigit-qizlarda o'z juftini topishga intilish va his keskin ortadi. Sevish va sevilishga bo'lgan ehtiyojning ortishi natijasida yoshlar yorini tezroq qidirib topishadi va oila qurishadi, ba'zan bunday yoshlar qisqa vaqt ichida ajralishga ham ulgurishadi. 25 yoshdan keyin qizlarning oila qurish imkoniyatlari ancha kamayib boradi.

Unda bo'lg'usi kuyovga (yigitga) nisbatan talabchanlik oshib, tanqidiy qarash kuchayadi. Endi unda hislarga berilish kam ayib, uning o'riga bo'lg'usi yoriga butunlay boshqacha qaray boshlaydi. Bunday ruhiy o'zgarishlar yigitlarda ham kuzatiladi, ammo qizlardan farqli ravishda ularning oila qurish, uylanish imkoniyatlari kamaymaydi, aksincha birmuncha ortadi. Chunki bu yoshda ularning ko'pchiligi oliy o'quv yurtini yoki o'rta-maxsus bilim yurtini bitirib, ma'lum bir ixtisosni egallagan, mehnat faoliyatini boshlagan bo'ladilar. Ya'ni oilani mustaqil tebratish imkoniga ega boladilar. Muhabbat hislari erkak va ayollarda o'ziga xos shahvoniy hirs uyg'otadi. Erkak kishida deyarli doimo

fiziologik komponent ustunlik qiladi. Jinsiy intilish, jinsiy hayot ular hissiyotida nihoyatda muhim o'rin egallaydi. Yigit sevgan qizininig tashqi ko'rinishiga ko'proq e'tibor beradi. Yuqorida sanab o'tilgan xususiyatlarga qizlar ham befarq qarashmaydi. Bu xususiyatlarning yigit tomonidan idrok etilishi ayol uchun katta ahamiyatga ega. Ammo shu bilan birga ayollarning erkaklardan farq qiluvchi tomonlaridan biri shundaki, ular ko'proq yigitning bo'y-bastiga, xulqiga, muomalasiga e'tibor beradilar. Erkaklarda jinsiy (fiziologik) intilish ustunlik qilgani uchun ularda hissiy qoniqish tezroq yuzaga kelsa kerak, deb taxmin qilinadi.

Ayollarda esa aksincha, ruhiy intilish yetakchi bo'lgani uchun ularning muhabbat hislari erkaklarnikidek tez orada so'nmaydi va nisbatan uzoq davom etadi. Ammo so'nggi yillarda ayollar hissiyotida, jumladan, muhabbatda ham jinsiy hayotning va uning asosi hisoblangan jinsiy intilishning ahamiyati keskin oshib borayotganligini ko'rish mumkin. 13—14 yoshli o'g'il bolalarning 40% i, qizlarning 26%i ilk sevgi hislarini boshidan kechirayotgan yoki kechirgan boladilar. Bu holat 15—16 yoshli o'g'il bolalarda — 17%, qizlarda 30%, 17—24 yoshli yigitlarda — 10%, qizlarda — 9% ni tashkil qiladi.

A .R .Lemexova (1973) qizlar va yigitlar orasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganib, uni uch turga bo'ladi.

1. Uyg'untur — bunda qiz va o'g'il bolalarda axloqiy tushunchalar shakllangan, hissiyot madaniy rivojlangan bolib, ular muhabbatga, qarama-qarshi jinsga, oilaviy hayotga birmuncha aniq qarashadi.

2. Oilaviy romantiktur — bundam muhabbat, jinslar orasidagi munosabatlar hayotdan yulungan holda, nihoyatda ideallashtirilib olingan bo'lib, hayotdagi mavjud borliq bilan to'qnashganda esa barcha tasavvurlari parchalanib, ruhan tushkunlikka uchraydi.

Ma'naviy kambag'al tur — bunda yoshlar muhabbatni noto'g'ri tushunadilar. Muhabbatda ma'naviy yaqinlikni, ruhiy omilning ahamiyatini ko'ra bilmaydilar. Muhabbatda asosiy rolni jinsiy yaqinlik o'ynaydi, deb biladilar. Bunday toifadagi yoshlar ko'p hollarda jinsiy hayotni erta boshlaydilar. O'g'il va qiz bolalarning turli yosh bosqichlaridagi o'zaro munosabatlarni o'sib rivojlanishiga nazar tashlaydigan bo'lsak, quyidagicha yaqqol ifodalangan manzaranik o'rinishimiz mumkin. Bog'cha yoshidagi qizlar o'g'il bolalar bilan birga o'ynash jarayonida juda yaqin muomolarda bo'ladilar, bir-birlari bilan do'stlashadilar. Hatto ba'zan bolalikning ilk sevgi hislarini ham boshlaridan kechirishadi. Bu albatta, ularning kattalarga havas qilishi, ularga taqlidi oqibatida kelib chiqadi. Boshlang'ich sinflardan o'smirlik yoshigacha o'g'il bolalar ko'pincha o'g'il bolalar bilan, qiz bolalar esa qiz bolalar bilan yaqin munosabatda bo'lishi tufayli jinslarning bir-birlaridan uzoqlashishi kuzatiladi. O'smirlik yoshidan boshlab ular orasida yaqinlashish mayli paydo bo'la boshlaydi.

O'smirlikning birinchi davrida bolalar o'zaro biror narsadan qo'rqqan tengdoshiga «qiz bolamisan, qo'rqasan», «o'z so'zining ustidan chiqmagan qiz bola» kabi iboralarni qo'llashadi. Bu iboralar ularning asosan o'z jinsini ustunqo'yishga intilishi, qiz bolalarni tan olmasligini ko'rsatsa, qizlar ham o'z navbatida o'g'il bolalarni nazar-pisand qilm asliklarini ko'ramiz.

Sevgi-muhabbat tuyg'ularini D.A. Li bir necha turlarga bo'ladi:

1. EROS — kuchli sevgi-muhabbat hislari bo'lib, bu hislar asosida yotgan motiv muhabbat obyektiga jismoniy ega bo'lish. Bunda jinsiy intilish yetakchilik qiladi.

2. LY U D U S — sevgi hislarini unchalik chuqur bo'lmagan muhabbat o'yini sifatida idrok qilinadigan, sevgi hislari obyektiga oson almashishi mumkin bo'lgan turi.

3. STO R G E — tashqi ko'rinishidan kuchli ifodalanmagan, ammo ishonchli muhabbat — do'stlik turi.

4. PR A G M A (L +S) — lyudus va storgelardan iborat doimo ong nazoratida bo'lgan, sevgan shaxsining manfaatlarini ko'zlagan maqsadlari asosida yuzaga kelgan sevgi hislaridir.

5. M A N I Y a (E + L) — eros va lyudusdan iborat bo'lib, sevgan kishi sevgi obyektidan tobeligi bilan xarakterlanadi. Ammo eros va lyudusdan bu turning farqi sevgan shaxsda o'ziga ishonch hislari yetarli bo'lmaydi.

6. A G A P E (E + S) — eros va storgelar yig'indisidan iborat kuchli ifodalanadigan sevgan kishi muhabbat obyektiga hamma narsasini va hatto o'zini ham bag'ishlashga tayyor bo'lgan hislar turi va hokazo.

Kuzatishlarga ko'ra erkaklarning sevgi muhabbat hislarida ko'proq qismini eros va lyudus, ayollarda esa pragma, storge va maniya turlari tashkil etadi. O'smir va o'spirin yoshidagi o'g'il va qiz bolalarda ko'proq maniya turi, katta yoshdagilarda esa boshqa turlar kuzatiladi. Bir shaxsning hayotida muhabbatning yuqoridagi bir necha turlari alohida kuzatilishi mumkin. Ba'zilar esa faqat bitta tur uchraydi. Bizning fikrimizcha, muhabbat turlari sevgan va sevilgan kishilarning yoshiga, husniga, ma'lum otiga, madaniy saviyasiga, jamiyatda tutgan mavqeyiga, hayot tarziga, dunyoqarashiga, qaysi muhitda tarbiya ko'rganligiga, xarakteriga, jinsiy haulqiga, qarama-qarshi jins haqidagi tasavuriga, nerv sistemasiga, milliy psixologik xususiyatlariga bog'liq.

Ba'zi yigit va qizlarda sevgi hislari bir turda boshlanib, m'lum vaqtdan so'ng o'zga turiga o'tishi mumkin. Masalan: «Eros» turida 4 — Oila psixologiyasi 97 boshlanib «agape»ga aylanish yoki «lyudus» tarzida yuzaga kelib, «storge» turiga o'tishi mumkin. Agar muhabbat turiga nazar tashlaydigan bo'lsak, erkin muhabbatning shakllanishi o'rta asrlarga to'g'ri keladi. Xususiy mulkchilikning ravnaqi, ontogonistik sinflarning mavjudligi, ayollarning huquqsizligi erkin muhabbatning ravnaq topishiga to'sqinlik qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Res'ublikasining Oila kodeksi. — T.: Adolat, 1998. — 302 b.
2. XXI asr oilasi kontse'psiyasi. Res'ublika "Oila" ilmiy-amaliy markazi. — T.: NISIM, 2002. — 28 b.
3. Freyd Ocherki 'o'sixologii seksualg'nosti. — Minsk, 1990. — 166 s.
4. "O'zbekiston milliy ensiklo'ediyasi" TOSHKENT 2000-yil
5. Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari, — T., VMa'naviyat», 1998. — 112-b
6. Hikmatnoma: O'zbek maqollari izohli lug'ati. T., 1990. — 528 b.

7. Shari'ova D. J., Semyonova A. o'quvchilarga gigienik ta'lim-tarbiya berish.— Toshkent: « O'qituvchi», 1983
8. Toshpo'latova, N. (2022). OILADA MA'NAViy TARBIYANI SHAKLLANTIRISHDA OTA-ONALARNING VAZIFALARI. *Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii*, 2(5).
9. Kamolova, S., & Maxmudova, A. (2023). Oliy ta'lim muassasalarida pedagogik kadrlarni tayyorlashning psixologik jihatlari. *Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii*, 3(1).
10. Yaxshiyeva, M. SH., Kamolova, SH., Eshonkulov, E. S., Jumartova, U. U., & Urazoliyev, X. A. (2015). Formirovaniye nauchnogo mirovozzreniya studentov. In *Aktualniye zadachi pedagogiki* (pp. 184-186).
11. Yaxshiyeva, M. SH., Kamolova, SH., Eshonkulov, E. S., Jumartova, U. U., & Urazoliyev, X. A. (2015). Formirovaniye nauchnogo mirovozzreniya studentov. In *Aktualniye zadachi pedagogiki* (pp. 184-186).
12. Shamsidinovna, A. M. (2023, April). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARGA BERILADIGAN TA'LIM MAZMUNI. In *E Conference Zone* (pp. 22-25).
13. Adilova, M. (2023). THE PSYCHOLOGICAL EFFECT OF TRAPS IN THE SOCIAL NETWORK ON YOUTH MIND AND SPIRITUALITY. *Open Access Repository*, 4(2), 500-505.
14. Komilova, A., & Adilova, M. (2023). SHAXS EMOTSIONAL INTELLEKTINING PSIXOLOGIK VA PSIXOFIZIOLOGIK JIXATLARI. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 3(2).
15. Komilova, A., & Adilova, M. (2023). AGRESSIYA–OSMIRLARDA YUZAGA KELADIGAN TAJOVUZKORLIK RIVOJLANISHIGA TASIR ETUVCHI FENOMEN SIFATIDA. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 3(1).
16. Muratovich, M. E., Kurbon, O., & Shamsiyevna, A. M. (2022). Some features of the formation of mathematical representations in preschoolers in the process of familiarizing them with the size and shape of objects.
17. Umdjon, Y., & Madina, A. (2023, April). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLADA O 'ZINI-O 'ZI ANGLASHDA OILANING ROLI. In *E Conference Zone* (pp. 11-16).
18. Umdjon, Y., & Madina, A. (2023, April). PROFESSIONAL MOTIVATION AND ITS STRUCTURE IN THE MANAGEMENT PROCESS. In *E Conference Zone* (pp. 11-16).
19. Madina, A., & Lobar, R. (2023). HUQUQIY ONG TUSHUNCHASINI O'RGANISHNING NAZARIY JIHLARI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 375-379.
20. Madina, A., & Donoxon, M. (2023). OILADA YOSHLARNI TOLERANT MADANIYATLI QILIB TARBIYALASH VA IJTIMOiy-PSIXOLOGIK OMILLAR. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 353-358.

21. Madina, A. (2023). BOLALARDA AHLOQIY FAZILATLARNI PSIXOLOGIK SHAKLLANTIRISH USULLARI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 340-345.
22. Shamsidinovna, A. M. (2023, May). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA 12. AHLOQIY JIHLATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK JARAYONLARI. In *E Conference Zone* (pp. 6-12).
23. Shamsidinovna, A. M. (2023, April). MAKTAB O'QUVCHILARINING INDIVIDUAL-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI O'RGANISHNING AHAMIYATI. In *E Conference Zone* (pp. 1-5).
24. Norbekova, B. S. (2016). YOSH VA O'QITISH DAVRI XUSUSIYATLARINING PEDAGOGIK QAROVSIZ O'QITIMLAR KELIB CHIQUVIGA TA'SIRI. The edition is included into Russian Science Citation Index., 77.
25. Норбекова, Б. 2021. Духовное воспитание - как основа психологического воспитания. *Общество и инновации*. 2, 10/S (ноя. 2021), 105–109. DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol2-iss10/S-pp105-109>.
26. Shavkatovna, N. B. (2022). AXBOROT TEXNOLOGIYALARI BILAN ISHLOVCHI SHAXSLARNING PSIXOLOGIK XOLATINING PATOLOGIYASI. *International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research*, 658-662.
27. Norbekova, B. (2022). O'roqboyeva M. Maktabgacha ta'limda psixologik xizmatni tashkil etishning o'ziga xos jihatlari. Zamonaviy innovatsion tadqiqotlarning dolzarb muammolari va rivojlanish tendensiyalari: yechimlar va istiqbollari, 1(1), 481-483.
28. Alibekov, D. (2020). Socio-philosophical basis of educational system development. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 10 (90), 24-26. SoI: <http://s-o-i.org/1.1/TAS-10-90-6> Doi: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2020.10.90.6>
19. Alibekov D. SOTSIALNO-FILOSOFSKIE OSNOVY RAZVITIYA SISTEMY OBRAZOVANIYA // *Jurnal muzyki i iskusstva*. – 2021. – T. 2. – №. 2.
29. Farsakhanova, Dilafuz, and Davron Alibekov. "Technology to improve the quality of education based on educational values." *Arxiv Nauchnykh Publikatsiy JSPI* (2020).
30. Alibekov, Davron. "Sharq mutafakirlarining ta'lim-tarbiya borasidagi qarashlari." *Jurnal muzyki i iskusstva* 2.1 (2021).
31. Alibekov, D., & Abduraqibova, D. (2023). TA'LIM TIZIMINING STRATEGIK RIVOJLANISHIDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI. *Журнал Педагогике и психологии в современном образовании*, 3(1). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/7730>
32. Alibekov, D. (2023). JAMIYAT TARAQQIYOTIDA TA'LIM TIZIMIGA INNOVATSION YONDASHUVNING STRATEGIK AHAMIYATI. *Журнал Педагогике и психологии в современном образовании*, 3(3), 168-173. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9137>